

SUG‘URTA SHARTNOMALARI VA TO‘LOV QOBILIYATI TA‘MINLASHNI MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Ochilov Ilyos Keldiyorovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Buxgalteriya hisobi va hisobot” kafedrası professori, i.f.d.

ochilov_ilyos@tfi.uz, ilyos0471@mail.ru,

ORCID: 0000-0002-3350-0891 (+998959979699)

Annotatsiya: Maqolada sug‘urta shartnomasini hisobga olishda 17-son MHXS “Sug‘urta shartnomalari” nomli MHXS talablarini tatbiq qilish, uning mohiyati ochib, uning sug‘urta kompaniyasi faoliyatining natijalari ta’siri ko‘rib chiqilgan. Sug‘urta kompaniyalarida shartnomalarni faoliyat turiga qarab komponentlarga ajratish orqali sug‘urta faoliyatining to‘lov qobiliyatini ta‘minlash yoritilgan.

Kalit so‘zlar: sug‘urta shartnomasi, moliyaviy instrumentlar, to‘lov qobiliyati, komponentlar, sug‘urta majburiyati, fuqarolarning sug‘urta shartnomasi, majburiyatlari turlari.

Sug‘urta kompaniyalarida buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzish jarayonida 4-son MHXS “Sug‘urta shartnomalari” nomli moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan foydalaniladi. Bu hujjat sug‘urta (qayta sug‘urta) shartnomalarini hisobga olish bo‘yicha xalqaro standart hisoblanib, bu shu turkumdagi standartlarni ishlab chiqishning birinchi bosqichi hisoblanadi. MHXS qo‘mitasining asosiy maqsadi birinchi bosqichda "Sug‘urta shartnomasi" tushunchasini hamda u bilan bog‘liq bo‘lgan xatarlarni tartibga solish va birlashtirishni qamrab olgan. Keyingi 15 yildan ortiq vaqt davomida 4-son MHXSning ishlab chiqish va uni takomillashtirish jarayoni davom etib kelmoqda. Dastlabki loyiha ishlab chiqilib muhokamaga qo‘yilishi 1997 yilda boshlangan bo‘lib, 2005 yilga kelib, "Sug‘urta shartnomalari"ning 1-bosqichi kurchaga kirgan va 2013 yilgacha birinchi bosqich amaliyotda foydalanilgan. 4-son MHXS “Sug‘urta shartnomalari” nomli 2-bosqichi 2014 yildan boshlab loyihasi e‘lon qilinib, Kengash muhokamasiga kiritilgan.

4-son MHXSning 2- bosqichi 2018 yil 1 yanvardan kuchga kiritildi va sug‘urta kompaniyalarining amaliyotiga joriy etilgan. Mazkur takomillashtirilgan standartda majburiyatlarni baholashda (joriy bozor qiymati / balans qiymati) hamda sug‘urta kompaniyalari axborot tizimlarida sezilarli o‘zgarishlarga olib keladi.

2013 yildagi Yevropa Direktivasiga muvofiq, 4-son MHXSni joriy qilishdagi II -bosqichining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- mavjud bo‘lgan barcha ma‘lumotlarni o‘zida mujassam etgan bozor ma‘lumotlariga mos keladigan joriy qiymat yondashuvidan foydalangan holda sug‘urta shartnomasini o‘lchash va tan olish;

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

- sug‘urta shartnomasidagi shartlardan kelib chiqadigan va‘da qilingan xizmatlarning o‘tkazilishini ta‘minlash, korxonalar ushbu xizmatlar evaziga qanday huquqlarga ega bo‘lishi hamda kutilayotgan summani aks ettirish, qoplanadigan xarajatlarni tashkilotga yetkazgan holda sug‘urta shartnomasi daromadlarini taqdim etish;

- To‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urtalash, qayta sug‘urtalash va o‘z xohishiga ko‘ra ishtirok etish bo‘yicha investitsiya shartnomalarini 4-son MHXSning I bosqichida, 4-son MHXSning amaldagi ko‘lamiga juda cheklangan o‘zgartirishlar kiritgan holda narxlash modelini qo‘llashni talab etiladi;

- Yuqoridagi me‘zonlar IASB tomonidan 2007 yilda ko‘rib chiqilgan va “To‘lov qobiliyati II” (Solvency II) uchun asos bo‘lib qolgan ishlab chiqarish xarajatlar modelidan farqli o‘laroq, adolatli ijro xarajatlari modeli sifatida tavsiflangan buxgalteriya modelini yaratadi. Majburiyatlarni bajarishning amaldagi modelida yuqorida qayd etilgan xususiyatlar sug‘urta shartnomalarini hisobga olish sug‘urtalovchining hisobot kunidagi sug‘urta qildiruvchi oldidagi qoldiq huquq va majburiyatlarini amalga oshirishning joriy qiymatini baholashiga asoslanganligini talab qiladi.

- Solvency II - bu sug‘urta qildiruvchilarning to‘lov qobiliyatiga yangi talablarni joriy etishga qaratilgan Yevropa Ittifoqi va Yevropa Parlamenti ko‘rsatmalariga asoslangan dastur.

“To‘lov qobiliyati II” (Solvency II) asosiy maqsadlari:

- iste‘molchilar huquqlarini himoya qilishning takomillashgan (yaxshilangan) mexanizmlarini yaratish;

- modernizasiya qilingan nazorat: nazorat jarayoni sug‘urtalovchining tavakkal profilini va uning risklarini boshqarish sifatini baholashga qaratilgan mezonlarni ishlab chiqish;

- sug‘urtalovchilarning xalqaro raqobatbardoshligini oshirish.

Sug‘urta kompaniyalari faoliyatiga MHXS standartlarini hamda “To‘lov qobiliyati II” (Solvency II) izchil tatbiq etishning afzalliklari quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin:

- tizim va ma‘lumotlar bazasini takomillashtirish zarurligini minimallashtiradi;

- moliyaviy va aktuar bo‘limlarning xarajatlarini kamaytirishga erishish va samaradorligini oshirish hisoblanadi;

- sug‘urta sohasida MHXSning yangi talablarini bajarishga tayyorligini ta‘minlashga qaratiladi;

- modellashtirish va ma‘lumotlarni boshqarish jarayonlari uchun operasion xarajatlarni kamaytirishga erishish orqali investorlar bilan munosabatlarni yaxshilash.

Keng qamrovli yondashuv bilan oldindan rejalashtirish har ikkala standartning muvaffaqiyatli bajarilishini ta‘minlash maqsadida hech bo‘lmaganda barqaror va iqtisodiy jihatdan samarali jarayonni yangi talablarga to‘liq mos kelishiga imkon beradigan moliyaviy hisobot va korxonaviy tavakkalchiligini ta‘minlash uchun juda muhimdir.

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Sug‘urta kompaniyalari uchun investorlarning taqdim etgan da‘volari birdan muammo manbaiga aylanishi ehtimoli yuqori hisoblanadi. Shuning uchun ularni hal qilishga tayyor turish hamda kerakli chora-tadbirlarning ko‘rilishi, kompaniyalarga raqobatbardoshlikda ustunlikni taqdim etishi mumkin.

“To‘lov qobiliyati II” (Solvency II)ni qabul qilish zarurligini asoslab bergan Yevropa Komissiyasining memorandumida to‘lov qobiliyatiga qo‘yiladigan amaldagi talablar eskirganligi sababli, ular xatarlarga sezgir emasligi, juda ko‘p tartibga solish milliy darajada qolib ketayotganligi, ular sug‘urta kompaniyalari guruhlarini faoliyatini tartibga solishga qodir emasligi ta’kidlangan. Bundan tashqari, sug‘urta kompaniyalarining to‘lovga qodirligi to‘g‘risida, ular oshkor qilgan ma’lumotlarga asoslanib xulosa chiqarish mumkin emas, bu sug‘urta bozorini tartibga solish va baholashga xalaqit beradigan omillar hisoblanadi. To‘lov qobiliyatini ta’minlash yuzasidan doimiy takomillashtirish ishlari olib borilmoqda. 17-son MHXS ishlab chiqilib 2023 yil 1-yanvar va undan keyingi sanalardan amaliyotga joriy etildi. 17-son MHXS hamda 4-son MHXS o‘rtasidagi asosiy farqli jihatlari buxgalteriya hisobida daromadlarni tan olish va majburiyatlarni baholashda qo‘llashning izchilligi va uning afzalligidir.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari Kengashi tomonidan yangi qabul qilgan 17-son MHXSda sug‘urta kompaniyalari taqdim qiladigan moliyaviy hisobotlarini tayyorlashda asos bo‘ladigan 4-son MHXSning o‘rnini bosadi.

Sug‘urta faoliyatida 17-son MHXS quyidagi shartnomalar uchun qo‘llaniladi:

- kompaniyalar tomonidan berilgan sug‘urta shartnomalariga;
- kompaniya tomonidan taqdim etilgan qayta sug‘urtalash shartnomalariga;
- to‘g‘ri-to‘g‘ri sug‘urtalovchi kompaniyasi tomonidan qayta sug‘urtalovchi kompaniyaga (sotilgan/o‘tkazilgan tavakkalchilik) berilgan sug‘urta shartnomalarining bir qismi (qayta sug‘urtalash shartnomalari) korxonaga;
- ixtiyoriy ishtirok etish xususiyatiga ega bo‘lgan investitsiya shartnomalari (agar tashkilot sug‘urta shartnomalarini tuzganda)ga.

17-son MHXS "Sug‘urta shartnomalari"ga binoan, korxonalar sug‘urta shartnomalari portfellarini dastlabki tan olishda aniqlab olishlari va ularni quyidagi minimal guruhlariga bo‘lishni talab qiladi:

- boshlanishida murakkab bo‘lgan shartnomalar;
- keyinchalik jiddiy bo‘lish ehtimoli bo‘lmagan shartnomalar;
- boshqa qolgan shartnomalar.

4-son MHXSga binoan, sug‘urta kompaniyalari daromadlarni tan olish va zaxiralarni hisoblash bo‘yicha o‘z talqin hamda takliflarini erkin taqdim qilishlari mumkin bo‘lgan. Masalan, MHXS bo‘yicha majburiyatlar bo‘yicha tavakkalchilikni tuzish kompaniyalar ixtiyoriga bog‘liq edi, hozir esa 17-son MHXS bo‘yicha majburiy hisoblanadi.

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Quyidagi jadvalda 4-son MHXS va 17-son MHXS o‘rtasidagi asosiy farqlarni(1-jadvalda) keltirib o‘tamiz.

1-jadval

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining qamrovi va ularning bir-biridan farqli jihatlarini taqqoslash.

4-son MHXS bo‘yicha:	17-son MHXS bo‘yicha:
<ul style="list-style-type: none">- shartnoma boshlanishida foydani tan olish;- daromad mukofotni o‘z ichiga oladi va investitsiya komponentini o‘z ichiga olishi mumkin;- qayta sug‘urta aniq asosda hisoblanadi;- bozor o‘zgaruvchilari qiymatining o‘zgarishi “foyda va zararlar” hisoboti orqali o‘tadi;- ma’lumotlarni oshkor qilish foydalanuvchilarga sug‘urtalovchining moliyaviy hisobotidagi miqdorlarni tushunishga yordam beradi;- komponentlarning ajratilishini aniqlashda ixtiyoriylik.	<ul style="list-style-type: none">- daromadni oldindan aniqlashga yo‘l qo‘yilmaydi. og‘ir shartnomalar bo‘yicha yo‘qotishlarni majburiy erta tan olish;- daromad har qanday investitsion komponentni o‘z ichiga olmaydi va korxonaga sug‘urta xizmatini ko‘rsatishi va tegishli tavakkalchilik ozod etilishi bilan bog‘liq bo‘lgan majburiyatlarning kamayishini ko‘rsatadi;- qayta sug‘urta alohida hisoblanadi;- bozor o‘zgaruvchilari qiymatining o‘zgarishi “foyda va zararlar” yoki “boshqa umumiy daromadlar” hisobotlari orqali bo‘lishi mumkin;- ma’lumotlar batafsilroq va aniqroq;- komponentlarni bir -biridan ajratish talab qilinadi.

Shartnomalarning murakkab guruhlarini bo‘yicha yo‘qotishlar darhol foyda yoki zarar hisobotida aks ettirilishi lozim. Korxonaga bir yildan ortiq muddatga tuzilgan shartnomalarni bir guruhga qo‘sha olmaydi. Shunday qilib, har bir shartnoma portfeli bir yil yoki undan kam davrlardan iborat guruhlariga bo‘linadi.

17-son MHXS "Sug‘urta shartnomalari" sug‘urta shartnomalarini hisobga olishning uchta yondashuvini taqdim etadi.

1. Umumiy o‘lchov modeli (The General Measurement Model—or Building Block Approach) yoki qurilish bloklari yondashuvi (The Premium Allocation Approach),
2. Premium ajratish yondashuvi (the Premium Allocation Approach)
3. O‘zgaruvchan to‘lov yondashuvi (the Variable Fee Approach) kiradi.

Uchta model sug‘urta shartnomasi bo‘yicha majburiyatlarning tarkibiy qismlarini hisoblashda qo‘llanilishi kerak bo‘lgan yondashuvni, ya’ni yuzaga kelgan talablar uchun javobgarlikni va qolgan sug‘urta qoplamasi uchun javobgarlikni belgilab beradi.

Yuzaga kelgan talablar uchun javobgarlik ma’lum bir sug‘urta siyosati uchun, masalan, avtotransport sug‘urtasi siyosatidagi baxtsiz hodisa kabi, ilgari berilgan yoki berilgan da’volarni bildiradi. Qolgan sug‘urta qoplamasi uchun

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

javobgarlik kompaniyaning ma’lum bir siyosat bo‘yicha kelajakdagi da’volarini kutishini anglatadi. Kompaniya yuzaga kelgan talablar uchun javobgarlik va qolgan sug‘urta qoplamasi uchun javobgarlik summasi uchun javobgarlik fondini yaratishi shart.



1.-rasm. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar talablari asosida buxgalteriya hisobini takomillashtirish yo‘nalishlari.

17-son MHXSga ko‘ra shartnomaning sug‘urtalanmagan qismini umumiy shartnomadan ajratish va agar bu sug‘urta bo‘lmagan tarkibiy qism alohida bo‘lsa, bunday holatlarda buxgalteriya hisobining tegishli standartlari bo‘yicha qayta ishlashni tavsiya qiladi. Sug‘urtalanmagan komponent bo‘lmagan qismlarini sug‘urta shartnomasi tarkibidan ajratish jarayoni deb ataluvchi muolaja hisoblanadi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining 4-soni MHXSga binoan, kompaniyalar komponentlarni ajratishni aniqlashda o‘z xohish-irodasidan foydalanishlariga imkoniyat yaratilar edi.

17-son MHXS bo‘yicha buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni takomillashtirish yo‘nalishlarini qo‘yidagi ketma-ketlikda ko‘rib chiqamiz(1-rasm):

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining 17-soni MHXSga binoan, komponentlarni ajratish amalga oshirilishidan oldin, bajarilishi kerak bo‘lgan qat’iy mezon talablari mavjud. Agar komponentlarni ajratish talab qilinsa, kompaniyalar sug‘urta qilinmagan komponentni ajratishi va buxgalteriya hisobining alohida standarti talablari bo‘yicha amaliyotlarni bajaradi. Masalan, 9-son MHXS yoki 15-son MHXS bo‘yicha hisobga olishlari kerak bo‘ladi. Sug‘urta kompaniyalari taqdim qilgan sug‘urtalashga aloqasi bo‘lmagan tovarlar

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

yoki xizmatlarni hisobga olishda 15-son MHXS talablariga mos hisobotda aks ettiradi.

17-son MHXSga binoan, sug‘urtalovchilar sug‘urta polisi egasi da’vo tarkibida yoki da’vo/xavf hodisasidan qat’i nazar, ma’lum bir xizmatdan foyda ko‘rishi mumkinligini baholashi kerak. Agar xizmatdan faqat sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganida, ya’ni, avariya sababli avtotransport vositasi sug‘urta xodisasi natijasida foyda ko‘rsa, bu xizmatni ajratish shart emas. Agar sug‘urta hodisasi sodir bo‘lishidan qat’i nazar, sug‘urta polisi egasi yo‘l-yo‘lakay yordamdan foydalana oladigan bo‘lsa, sug‘urtalovchidan ushbu komponentni ajratib, 17-son MHXS bo‘yicha emas, balki 15-son MHXS bo‘yicha hisobga olish talab qilinadi.

17-son MHXS «Sug‘urta shartnomalari» ga muvofiq sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy hisobotlarini shakllantirish tartiblari va hisobot ma’lumotlari taqqoslanishini ta’minlash bo‘yicha yagona Nizom va yo‘riqnomalarni ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqaradi. Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy hisobotini tuzish va taqdim qilishni MHXS talablari bo‘yicha takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida” gi Qonuni. Toshkent sh., 2021-yil 23-noyabrdagi, O‘RQ-730-sonli.
2. Antonovich Yu.N., Kizogyan R.A. Finansovaya ustoychivost straxovoy organizatsii (na primere OAO «Straxovaya kompaniya «Soyuz»).// "Ekonomika i sotsium" №6(19) 2015. s. 329-332. www.iupr.ru.
3. Sbornik otdelnykh MSFO, ChAST 1, ChAST 2 vyrushennykh na 1 yanvarya 2015 goda. Tashkent, 2015, -235
4. 4-son “Sug‘urta shartnomalari” moliyaviy hisobotning xalqaro standarti.
5. 17-son “Sug‘urta shartnomalari” moliyaviy hisobotning xalqaro standarti.
6. Tashnazarov S.. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: Darslik. – Toshkent:, 2019. – 555 b.
7. Raximov M. Y. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. O‘quv qo‘llanma / O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Toshkent Moliya instituti. -T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2013.392 b.
8. Raximov M.Y. Moliyaviy tahlil-2 (o‘quv qo‘llanma) T.:TMI. 2003 y. 166 b.
9. Qlichev Baxtiyor Pardayevich. (2024). Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda CVP-tahlilni tashkil etishning muammoli jihatlar. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 4 (2024), 754–759
10. Чориев И.Х. (2023). Молиявий ҳисоботлардаги хатоликларни аниқлашда таҳлилий амаллардан фойдаланишнинг услубий

жихатлари. *Scientific Journal of “International Finance & Accounting*, Issue 1, February 2023.

11. Choriev I.X. Auditorlik faoliyatida tahliliy amallarni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: «Iqtisod-moliya»nashriyoti, 2021, - 21-26 b.

12. Қличев, Б. (2022). КРІ ТИЗИМИ АСОСИДА МОДДИЙ РАҒБАТЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ ТАҲЛИЛИ. *Архив научных исследований*, 2(1). извлечено от <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1343>

13. Klichev Bakhtiyar Pardayevich. (2024). Problematic Aspects of Organizing Cvp-Analysis in the Enterprises of Uzbekistan // Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 5(5), 241–248. Retrieved from <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/4906>

14. Чориев И.Х. (2023). Молиявий инвестициялар ҳисобини такомиллаштириш. *Scientific Journal of “International Finance & Accounting*, Issue 2, April 2023.

15. U.K.Yakubov, G.S.Mahmudova. (2022). Biznes tahlil: Operatsion tahlil-1,2. (Darslik). –Т.: “Nihol print”, 205 b.

16. Qlichev Baxtiyor Pardayevich. (2024). Korxonalarda operatsion faoliyat samaradorligini tahlil qilish masalalari. *World Scientific Research Journal*, 26(3), 86–94. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3251>

17. Косимович, Я. У. (2024). Ташқи савдо фаолиятида мақбул ечимни топиш масалаларини таҳлили. *World scientific research journal*, 26(2), 199-205.

18. Tulaev, M. (2024). Moliyaviy hisobot konsepsiyalari. *Nordic_Press*, 2(0002).

19. Абдуллаев, А. Б. (2019). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА И АНАЛИЗА НАЛОГОВ. In *БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ: ДОСТИЖЕНИЯ И НАУЧНЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ XXI ВЕКА* (pp. 10-17).

20. Kasimovich, Y. U. (2021). Developing A Model On The Basis Of A System Of Indicators Determining The Efficiency Of Foreign Trade Activities. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(7).

21. ҚЛИЧЕВ, . Б. П. (2022). ИШБИЛАРМОНЛИК ФАОЛЛИГИ ТАҲЛИЛИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. *Архив научных исследований*, 2(1). извлечено от <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/373>

22. Кличев, Б. (2023). Корхоналарда маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажми таҳлилини такомиллаштириш масалалари. Направления развития благоприятной бизнес-среды в условиях цифровизации экономики, 1(01), 170–173. <https://doi.org/10.47689/TSUE2022-pp170-173>

23. [Tulaev, M. \(2024\). T BUXGALTERIYA HISOBINING SCHYOTLARI VA ULARNING MOHIYATI. Nordic_Press, 2\(0002\).](https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/373)

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

24. Qlichev, B. (2024). Korxonalar faoliyatini rivojlantirishda operatsion faoliyat tahlilining zarurligi. Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, Konferensiya to'plami. Termiz, O'zbekiston. 15-iyun 2024-yil. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11909171>

25. Қличев Бахтиёр Пардаевич, (2023). Корхоналарда маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажми таҳлилини такомиллаштириш масалалари. Issues of improving the analysis of the volume of production at enterprises. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ,13(7), 42–49. Retrieved from <http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/2782>

